

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
69 sahifa, oktyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	



O'QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA'LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI

Yuldashev Iskandar Bahromovich

Tashkent international university rektori PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va talabalar uchun innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro standartlarga moslashuv mexanizmlarini o'rganadi. Xalqaro standartlar asosida moslashuv strategiyalari, shu jumladan kurrikulumni qayta ko'rib chiqish, o'qituvchilar malakasini oshirish va texnologik integratsiya tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xalqaro standartlarga moslashish orqali ta'lim sifatini oshirish va global raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim, xalqaro standartlar, moslashuv mexanizmlari, o'qituvchilar va talabalar rivojlanishi.

Abstract: This article examines the mechanisms of adaptation to international standards in the process of developing innovative educational programs for teachers and students in higher education institutions. Adaptation strategies based on international standards, including curriculum revision, teacher training, and technological integration, are analyzed. The results of the study indicate the possibilities of improving the quality of education and ensuring global competitiveness through adaptation to international standards.

Keywords: innovative education, international standards, adaptation mechanisms, teacher and student development.

Аннотация: В статье рассматриваются механизмы адаптации к международным стандартам в процессе разработки инновационных образовательных программ для преподавателей и студентов высших учебных заведений. Анализируются стратегии адаптации, основанные на международных стандартах, включая пересмотр учебных программ, повышение квалификации преподавателей и интеграцию технологий. Результаты исследования указывают на возможности повышения качества образования и обеспечения глобальной конкурентоспособности посредством адаптации к международным стандартам.

Ключевые слова: инновационное образование, международные стандарты, механизмы адаптации, развитие преподавателей и студентов.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi to'rtinchi sanoat inqilobi ta'sirida jadal o'zgarishlarga duch kelmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va masofaviy o'quv shakllari ta'lim jarayonini tubdan qayta shakllantirmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish o'qituvchilar va talabalarga yangi ko'nikmalar berish, kreativlikni rivojlantirish va global mehnat bozoriga moslashishni talab etadi. Biroq, bu dasturlarni xalqaro standartlarga moslashtirmasdan, ularning samaradorligi cheklangan bo'ladi. Xalqaro standartlar, masalan, Bologna jarayoni va ISTE (International Society for Technology in Education) standartlari, ta'lim sifatini baholash va rivojlantirish uchun asosiy mezonlarni belgilaydi.



Zamonaviy jamiyatni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari bilim va innovatsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Global raqamlashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalari an'anaviy boshqaruv usullaridan voz kechib, raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion menejment tizimlarini joriy qilishga majbur. Jahonning ko'plab mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lib, ular milliy iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlab berishda asosiy institut vazifasini o'taydi. Umuman olganda, iqtisodiyotda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularni iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini mustahkamlashda oliy ta'lim muassasalari nafaqat milliy darajada, balki xalqaro darajada ham raqobatga kirishishiga zaruratning shakllanganligini kuzatish mumkin. Xalqaro va milliy mehnat bozoridagi raqobatning keskin rivojlanayotganligi nafaqat inson va inson o'rtasidagi kurashish bilan ifodalanadi, balki inson va yuqori texnologiyalar o'rtasidagi kurashning vujudga kelganligi bilan ham o'z aksini topadi. Bu esa, insonlardan sifatli ta'limni olishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ma'lumki, bizning asrimiz axborot texnologiyalari davri bo'lishi bilan ham yangi rivojlanish bosqichini boshlab bermoqda. Bunda axborot-roboto texnologiyalarning mehnat bozoriga kirib kelishi alohida ahamiyatga bo'lmoqda. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalari to'xtovsiz takomillashayotgan xalqaro standart mezonlariga moslashishi va uning doirasida yuqori reputatsiyaga ega bo'lishi oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy omillardan biri hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J.Lekkey va boshqalar o'zlarining tadqiqotida Buyuk Britaniya universitetlarida ta'lim sifatini baolashda talabalarining munosabatlarini inobatga olish tendentsiyalarini qayd etib o'tadi¹. Ular mamlakatdagi oliy ta'lim sifatini oltita kategoriya doirasida tahlil qiladi. Jumladan, Sifatni ta'minlash agentligi (the Quality Assurance Agency)ning baholashlarini tahlil qilishga e'tibor qaratishadi. Ularning fikricha, ta'lim senejmenti va talabalar munosabatlarini ishlash tizimlarida qator murakkabliklar saqlanib qolayotganligini ta'midlab o'tishadi. Shu boisdan, talabalarining yondashuvlarini aniqlash va ularni baholashga qaratilgan metodlarga bo'lgan zaruratni asoslashga harakat qiladi.

P.Ferguson professor-o'qituvchilarning ta'lim berish jarayonlarini talabalar nuqtai nazari bilan baholashga e'tibor qaratadi². U 2007-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda bakalavriat talabalarining 46 foizi qayta aloqa yo'qligi yuzasidan o'zlarining fikrlarini bildirganligini qayd etib o'tadi. Uning fikricha, talabalar dars mashg'ulotlar vaqtida, birinchidan talabalar ko'p vaqt talab etmasa jarayonni darsda takrorlashni, ikkinchidan darsning asosiy vaqtini o'g'irlamaslik va uchinchidan sinfdan tashqari vaqtlarda og'zaki qayta aloqaning afzal ko'rishlari kabilarni asoslab beradi.

J.Sanchez va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda kunduzgi ta'lim talabalari uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda axborot kommunikasion texnologiyalari (AKT)dan foydalanish tendentsiyalarini tahlil etadi³. Ularning fikricha, professor-o'qituvchilar AKTdan foydalanishga nisbatan qarshilik ko'rsatishmagan, aksincha ular bunga moyillik ko'rsatishga. Natijada, o'qitish jarayonlariga ayrim o'zgarishlarni kirib kelishiga xizmat qilgan. Birinchidan, professor-o'qituvchilarning ish yuklamalarini kamaytirish va uni samarali boshqarishga imkon bergan. Boshqa tomondan esa, talabalarda ham yangi ko'nikmalarni shakllanishiga ijobiy ta'sir etgan. AKTning yana bir ijobiy jihati o'quv materiallaridan foydalanishga nisbatan qulayliklarni kengaytirish asoslab berilgan.

T.Nguyun o'zining tadqiqotida oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarining o'quv rejalarining o'zgarishiga nisbatan munosabatlarini tahlil etadi⁴. Ularning fikricha, o'quv dasturlarini ishlab chiqilishida uni kimlar bilan kelishilishi lozimligi uni tuzish borasidagi ko'rsatmalarda aniq ko'rsatilmagan. Biroq, o'qituvchilar o'quv dasturlarini ishlab chiqilishida talabalarining ishtirokini ma'qul ko'rmasliklarini asoslab berilgan.

S.Choy va boshqalar tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning talabalar o'rtasidagi tanqidiy mushohadasiga nisbatan yondashuvlarini baholashga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirilgan⁵. Talabalarining tanqidiy mushohadasi o'qituvchilarning auditoriyadagi xarakterini shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatar ekan. Tanqidiy mushohada talabalarining mantiqiy fikrlashidan farq qilishi ko'rsatib o'tishadi va o'qituvchilar ushbu ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan konsepsiyani doim ham tio'laqonli tushunib yetmasligini asoslab berishadi.

1 Leckey, J., & Neill, N. (2001). Quantifying quality: the importance of student feedback. *Quality in Higher Education*, 7(1), 19-32.

2 Ferguson, P. (2011). Student perceptions of quality feedback in teacher education. *Assessment & evaluation in higher education*, 36(1), 51-62.

3 Sanchez, J. J. C., & Alemán, E. C. (2011). Teachers' opinion survey on the use of ICT tools to support attendance-based teaching. *Computers & Education*, 56(3), 911-915.

4 Nguen, T. V. S., & Laws, K. (2019). Changes in higher education teachers' perceptions of curriculum. *Journal of Applied Research in Higher Education*, 11(1), 76-89.

5 Choy, S. C., & Cheah, P. K. (2009). Teacher perceptions of critical thinking among students and its influence on higher education. *International Journal of teaching and learning in Higher Education*, 20(2), 198-206.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu nuqtai nazardan, biz ham tadqiqotimizda ta'lim sifatiga nisbatan professor-o'qituvchilarning munosabati va ularning ushbu jarayondagi ta'sirini baholash uchun 2024-yil iyun va iyul oylarida mamlakatimidagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazdik. Mazkur so'rovnoma https://docs.google.com/forms/d/1t84S_uP77kO66k1PvXy-uTeVzEKwpyH60dc24um9iv8/edit elektron manzilida joylashtirilgan bo'lib, unda O'zbekistonda joylashgan universitetlarning professor-o'qituvchilari ishtirok etdi. So'rovnoma o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari qatorida nodavlat universitet sifatida – Qo'qon universiteti, davlat universitetlari sifatida – Namangan muhandislik-qurilishi instituti (NamMQI), O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) Farg'ona filiali va O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi (O'zDXA) kabilar tanlab olindi.

So'rovnomada jami 396 nafar professor-o'qituvchilar ishtirok etdi va ular so'rovnomadagi mavjud savollarga mustaqil javob berishdi. Ushbu so'rovnomaning tarkibiy tuzilish va uning savollari, unga berilishi mumkin bo'lgan javoblari bilan quyidai tanishish mumkin.

Innovatsion ta'lim menejmentini baholash uchun professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma:

1. Yoshingiz

2. Jins

Erkak

Ayol

3. Ish joyingiz (universitet) nomini yozing

4. Ilmiy daraja va unvoningiz

f.d. (DSc), professor

f.n. (PhD), dotsent

dotsent

yo'q

5. Lavozimingiz?

kafedra mudiri

professor

dotsent

katta o'qituvchi

assistent

6. Malaka oshirishga borganingizga qancha bo'ldi?

1 yildan kam

1 yildan ko'p

2 yildan ko'p

3 yildan ko'p

4 yildan ko'p

7. Kafedrada qanday stavkada ishlaysiz?

1,0

0,75

0,5

0,25

8. Kafedrada qanday shaklda ishlaysiz?

Asosiy

O'rindosh

9. Sillabusda berilgan mavzular va boshqa ma'lumotlar asosida darsni tashkil etasizmi?

Ko'rib chiqib, o'zgarishlar qilishim mumkin

Kafedra mudiri aytsa o'zgartiraman

Agar boshqa fanlar o'zgartirsa, men ham o'zgartiraman

O'zgartirmayman

**10. O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishda qanday tayyorgarlik ko'rasiz?**

Menda tayyor prezentasiyam bor
Internetdan yangi ma'lumotlarni topaman
O'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlardan
Chet tilidagi ilmiy adabiyotlardan

11. Ilmiy tadqiqotlaringiz natijalarini nashr etib turasizmi?

Doim
Ayrim paytlarda
Kam nashr etaman
Vaqtim yetmaydi
Darsdan bo'sh vaqt topa olmayman

12. Siz ilmiy tadqiqotlarni kimlar bilan amalga oshirasiz?

Xorijlik hamkorlar bilan
Mahalliy (boshqa universitetdagi) hamkorlar bilan
Hamkasblar bilan
O'zim
Amalga oshirmayman

13. Kafedrada o'tkaziladigan majlislarga munosabatingiz.

O'qituvchi faoliyatiga tegishli bo'lmagan masalalar kamaytirilishi kerak
O'tkazish vaqtini kamaytirish kerak
Kafedra mudiri hafa bo'lmasin deb qatnashaman
Kafedradagilarni ko'rish uchun kelaman

14. Rahbariyat tomonidan Sizga to'lanayotgan ish haqiga munosabatingiz?

Juda yaxshi
Yaxshi
O'rtacha
Kam
Juda kam

15. Sizning o'quv yuklamangizda fanlar soni nechta?

1ta
2ta
3ta
4ta
5 va undan ko'p

16. Darsda yangi usullardan foydalanasizmi

Doim foydalanaman
Ayrim paytlarda
O'zim bilgan usullarni qo'llayman
Bilmadim

17. Darsda talabalarni yo'qlama qilasizmi?

Albatta
Ba'zan
Dekanat yo'qlama qilishini kutaman
Men uchun bu muhim emas

18. Darsda loqayd o'tirgan talabaga munosabatingiz qanday bo'ladi?

Unga mavzu to'g'risida gapirishga imkon beraman
Qo'shimcha savol beraman
E'tiborsiz qoldiraman
Darsdan chiqaraman
Dekanatga shikoyat qilaman

19. Dars davomida mavzuni tushuntirish bilan birga ...

Mavzuga bog'liq qiziqarli voqealar aytaman
E'tiborsiz o'tirgan talabalarga tanbeh beraman
Charchab ketib stulga o'tirib olaman
Talabalardan savollar so'rayman

20. Dars o'tishingiz davomida elektr energiyasi o'chib qolsa, ...

Darsni davom ettiraman
Dekanatga xabar beraman



Kafedraga xabar beraman

O'zim bilgan mavzuda suhbat qilib turaman

21. Sizning faningizdan a'lo (5 baho) oladigan talabalar soni ...

Juda ko'p

Ko'p

O'rtacha

Kam

Yo'q

22. Sizning faningizdan yaxshi (4 baho) oladigan talabalar soni ...

Juda ko'p

Ko'p

O'rtacha

Kam

Yo'q

23. Sizning faningizdan qoniqarli (3 baho) oladigan yoki yiqiladigan talabalar soni ...

Juda ko'p

Ko'p

O'rtacha

Kam

Yo'q

24. Talabalarni faningizga bo'lgan munosabatida qiziqish uyg'onganini sezasizmi?

Juda seziladi

Seziladi

O'rtacha

Sezilmaydi

Qiziqmaydi

Biz mazkur so'rovnoma natijasida shakllangan birlamchi statistikasi Stata kompyuter dasturiy ta'minoti imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiramiz.

1-jadval. Professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma tarkibi

OTM nomi	Proportion	Linearized Std. Err.	Logit [95% Conf. Interval]	
NamMQI	.6085859	.0245573	.5593921	.655668
TATU Farg'ona filiali	.0631313	.0122367	.0429397	.0919059
Qo'qon universiteti	.280303	.0225991	.2380867	.3267942
O'zMU	.0252525	.0078941	.0136032	.0464084
O'zDXA	.0227273	.0074986	.0118332	.0432123

So'rovnomada ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning yirik ulushi Namangan muhandislik-qurilishi instituti (60,8 foiz), Qo'qon universiteti (28 foiz) va qolgan oliy ta'lim muassasalaridan ishtirok etganlar miqdori 1 foiz atrofida bo'layotganligini kuzatish mumkin (1-jadvalga qarang).

Biz tadqiqotlar davomida o'qituvchilar tomonidan o'zlarining fanlari yuzasidan turli baholar oladigan talabalar sonining o'zgarish chastotasi va fanga nisbatan qiziqish bo'yicha bergan javoblarni bog'liq o'zgaruvchilar sifatida tanlab oldik. Buning asnosida ta'lim sifatini yanada oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish nuqtai nazaridan tahliliy baholashlarni amalga oshirdik.

Buning uchun multinomial / ordered logistic regression metodlaridan foydalangan holda tahlillarni amalga oshiramiz. Shuningdek, mazkur ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni o'quv mashg'ulotlariga nisbatan tashqi va ichki ta'sir etuvchi elementlarga ham ajratishga e'tibor berdik.

Dastlab talabalarining fanga bo'lgan munosabatida qiziqish uyg'onganligini aniqlashga qaratilgan berilgan savolni bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlab, Yosh, jins, ilmiy daraja, kafedradagi lavozim, malaka oshirish darajasi, qanday shartnoma bo'yicha ishlashi, sillabusga bo'lgan munosabat, o'quv mashg'ulotlariga tayyogarlik ko'rish shakli, kafedra majlisiga munosabat va o'quv yuklamadagi fanlar soni bo'yicha berilgan savollar yuzasidan tanlangan javoblarning ta'sirini o'rganganimizda modelimiz statistik jihatdan ahamiyatga ega emasligini aniqladik. Bunda $F(10, 386)=1.34$ va $Prob>F=0.2084$ ga teng ekanligini ta'kidlash lozim.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mazkur savollarga doir o'quv mashg'ulotlariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan tashqi omillar talabalarining fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otish bilan bir tendentsiyaga ega bo'lmaganligini qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Teshabayev T.Z. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.
2. Leckey, J., & Neill, N. (2001). Quantifying quality: the importance of student feedback. *Quality in Higher Education*, 7(1), 19-32.
3. Ferguson, P. (2011). Student perceptions of quality feedback in teacher education. *Assessment & evaluation in higher education*, 36(1), 51-62.
4. Sanchez, J. J. C., & Alemán, E. C. (2011). Teachers' opinion survey on the use of ICT tools to support attendance-based teaching. *Computers & Education*, 56(3), 911-915.
5. Nguen, T. V. S., & Laws, K. (2019). Changes in higher education teachers' perceptions of curriculum. *Journal of Applied Research in Higher Education*, 11(1), 76-89.4. Zufarova N.G. Oliy ta'limda brend kapitali boshqaruvini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 58 b.
6. Choy, S. C., & Cheah, P. K. (2009). Teacher perceptions of critical thinking among students and its influence on higher education. *International Journal of teaching and learning in Higher Education*, 20(2), 198-206.
7. Adizov B.I. Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 60 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100